BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK TURLARI VA ULARNING SALBIY TA’SIRI

Sultanova Nilufar
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik turlari va uning natijasida bolalarda kuzatiladigan salbiy oqibatlar hamda hujjatda davlat bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun huquqiy, ma’muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko‘rishi, shu jumladan, bola va uning oilasini qo‘llab-quvvatlashi hamda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va oldini olish, zo‘ravonlik holatlari haqida xabar berish, ushbu holatlarni tergov qilish, aybdorlarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta’minlash, zo‘ravonlik qurbonlarini reabilitatsiya qilish, ularning huquqlarini tiklash va ijtimoiy moslashtirishni ta’minlash mexanizmlarini yaratishi kerakligi xususida batafsil ma’lumotlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, bolaning asosiy ehtiyojlari, ta’qib qilish (bulling), bolalarni ekspluatatsiya qilish, himoya orderi.*

Abstract: *This article provides detailed information on the types of violence against children and the resulting negative consequences. It also outlines the necessity for the state to implement legal, administrative, social, economic, and other measures to protect children from all forms of violence—including support for the child and their family—and to establish mechanisms for identifying and preventing violence, reporting incidents, investigating cases, ensuring the inevitability of holding perpetrators accountable, and rehabilitating victims while restoring their rights and facilitating their social reintegration.*

Keywords: *physical violence, sexual violence, emotional violence, neglect, child's basic needs, bullying, child exploitation, protection order.*

Аннотация*: В статье представлена подробная информация о видах насилия в отношении детей и его негативных последствиях. Также обосновывается необходимость принятия государством правовых, административных, социальных, экономических и иных мер по защите детей от всех форм насилия (включая поддержку ребенка и его семьи) и по созданию механизмов выявления и предотвращения насилия,*

информирования о подобных инцидентах, расследования случаев, обеспечения неотвратимости ответственности виновных, а также реабилитации пострадавших, восстановления их прав и содействия их социальной реинтеграции.

***Ключевые слова**: физическое насилие, сексуальное насилие, эмоциональное насилие, пренебрежение нуждами ребенка, основные потребности ребенка, буллинг, эксплуатация детей, охранный ордер.*

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning sabablarini individual, oilaviy, ijtimoiy va madaniy hamda tizimli omillar guruhiga ajratish mumkin. Individual darajada, bolalar va uning parvarish qiluvchilari xususiyatlari katta ahamiyotga ega. Bolalarning yoshi va jinsi zo‘ravonlik xavfiga ta’sir qiluvchi muhim omillar hisoblanadi. Yosh bolalar va o‘g‘il bolalar jismoniy zo‘ravonlikka ko‘proq duch kelishadi, qiz bolalarning esa emotsional yoki jinsiy zo‘ravonlikga uchrash ehtimoli yuqori. Yomon ruhiy salomatlik, ota-onalarning alkogol yoki narkotik moddalarni iste’mol qilishi va oila tarixida zo‘ravonlikning bo‘lganligi bolalar zo‘ravonligini ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Masalan; Germaniyada COVID-19 pandemiyasi davrida moliyaviy qiyinchiliklar va ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar, ayniqsa karantin davrida, zo‘ravonlik xavfini oshirganligini ko‘rsatdi.(Ebert & Steinert, 2021). Shuningdek, ota-onalar o‘zlari zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan xolatlarda zo‘ravonlikning avloddan-avlodga o‘tishiga sabab bo‘lishi ta’kidlangan.(Cerna-Turoff et al., 2021; Tajima, 2000). Oilaviy darajada esa, oilaning tarkibi, ota-onalarning ma’lumoti va bandligi, shuningdek, oila ichidagi nizolar xisobga olinadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif bo‘lgan oilalar, ko‘p bolali oilalar va yolg‘iz ota-onalik kabi holatlar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning xavfini oshiradi. Masalan; AQSHda ishsiz otalar va ishchi sinf vakillari bo‘lgan oilalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik darajasi yuqori bo‘lgani aniqlangan. (Wolfner & Gelles, 1993). Puandada esa, faqat otasi bilan yashaydigan bolalar yoki biologik ota-onalari bilan yaqin munosabatda bo‘lmagan emotsional zo‘ravonlikka ko‘proq duch kelishgan.

Jismoniy zo‘ravonlik — bolalarga turli darajadagi tan jarohatlarini yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatmaslik.

Jinsiy zo‘ravonlik — bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan harakatlar qilish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan:

- nomusga tegish;
- jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish;
- jinsiy aloqa qilishga majburlash;
- 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish;
- voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega bo‘lgan harakatlarga ijrochi sifatida jalb qilish;
- voyaga yetmagan shaxsni jalb qilgan holda qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish;
- aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yoxud bolaning ojizligidan foydalangan holda shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish;
- shahvoning shilqimlik, shuningdek, qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan har qanday boshqa jinsiy harakatlar.

Ruhiy zo‘ravonlik — bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek, bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligidan xavotir uyg‘otadigan, o‘zini himoya qila olmasligiga olib keladigan yoki ruhiy salomatligiga zarar yetkazadigan harakatlar (harakatsizlik).

G‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik — zarur imkoniyatlarga, bilim va ko‘nikmalarga, shu jumladan, buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta’lim, ijtimoiy va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ota-ona (ular o‘rnini bosuvchi yoki bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning sog‘lig‘i, jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishining buzilishiga olib kelishi.

Bolaning asosiy ehtiyojlari — bolaning to‘laqonli rivojlanishi, jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy va boshqa zarur sharoitlar bilan ta’minlash, xavfsizlik, ta’lim olish, ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Bolalarni ekspluatatsiya qilish — boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan, odam savdosi, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek, nikohga yoki er-xotin bo‘lib yashashga majburlash, ma’lum bir diniy ta’lim olishga undash, har qanday shaklda mehnatga majburlash uchun jismoniy yoki ruhiy ta’sir o‘tkazish kiradi.

Ta’qib qilish (bulling) — bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanishi, u bilan

har qanday muloqotni rad etishi, uning mulkini tortib olishi va zarar yetkazishi, jismoniy, ruhiy yoki aqliy xususiyatlarini omma oldida muhokama qilishi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishi yoki sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazishi, shu jumladan, internet orqali amalga oshiriladigan uzoq muddatli ruhiy va jismoniy tajovuzkor ta'sir o'tkazishidir.

Hujjatda davlat bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko'rishi, shu jumladan, bola va uning oilasini qo'llab-quvvatlashi hamda bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash va oldini olish, zo'ravonlik holatlari haqida xabar berish, ushbu holatlarni tergov qilish, aybdorlarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta'minlash, zo'ravonlik qurbonlarini reabilitatsiya qilish, ularning huquqlarini tiklash va ijtimoiy moslashtirishni ta'minlash mexanizmlarini yaratishi kerakligi belgilangan.

O'zbekiston prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organi etib tayinlandi.

Zo'ravonlikdan jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili moddiy va ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilganda qonunga muvofiq davlat bojini to'lashdan ozod etiladi.

Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish choralari.

Qonun bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha umumiy va individual chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Umumiy chora-tadbirlarga bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish, zo'ravonlik omillarining oldini olish va bartaraf etish, oilalarni qo'llab-quvvatlash, bolalar huquqlari to'g'risida xabardorlikni oshirish va ularni buzganlik uchun javobgarlik masalalari kiradi.



-sog‘liq, jinsiy erkinlik, oila, yoshlar va axloqqa qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash.	-bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning zo‘ravon xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturlaridan o‘tishi;

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha yakka tartibdagi choralarni qo‘llash uchun asoslar:



-

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, maslahat berish va yordam choralari to‘g‘risida xabardor qilish uchun butun O‘zbekiston bo‘ylab kechayu kunduz ishlaydigan maxfiy ishonch telefoni tashkil etiladi. Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan va uni sodir etish xavfi ostida bo‘lgan bolalarni aniqlash. Ijtimoiy himoya milliy agentligi boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan bolalarni aniqlashda ishtirok etadi, bunday bolalarni hisobga oladi va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha individual choralar qo‘llanilishini ta’minlaydi.

O‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan toifalarga quyidagilar kiradi:

-yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar;

-o‘z hayoti yoki sog‘lig‘iga tahdid soladigan yoxud bolalarni ta’minlash, tarbiyalash, ularga ta’lim berish va ularni parvarish qilish talablariga javob bermaydigan sharoitlarda turgan bolalar;

- qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalar;

- ijtimoiy xavfli vaziyatda bo‘lgan bolalar;

-nogironligi bo‘lgan bolalar, shu jumladan, ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar;

-ota yoki onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) ruhiy holati buzilganligi va narkologik kasalliklari sababli dispanser hisobida turgan bolalar;

-bolani yolg‘iz tarbiyalayotgan ota yoki onaga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan yoki ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo chorasi qo‘llanilgan bolalar;

-ota yoki onasi tomonidan ma’lum turdagi jinoyatlar (masalan, onaning yangi tug‘ilgan bolani qasddan o‘ldirishi, o‘z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish, qiynoqqa solish va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar) yoki huquqbuzarliklar (g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, tilanchilik, fohishalik) sodir etilgan bolalar;

-g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli bolalar;

-fohishabozlik bilan shug‘ullanadigan bolalar.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish ustida ishlayotgan davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar hamda sudlar zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki uning sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan bolalar to‘g‘risida faktlar aniqlangan taqdirda, bu haqda zudlik bilan vakolatli organlar va ichki ishlar organlariga xabar berishi shart. Ichki ishlar organlari bolalarga nisbatan zo‘ravonlik to‘g‘risida og‘zaki yoki yozma xabar olganlarida bunday xatti-harakatlarga chek qo‘yish va ularning oldini olish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan choralarni ko‘rishlari, shuningdek bu haqda ijtimoiy himoya agentligiga xabar berishi shart.



-

Himoya orderi.

Himoya orderi zo‘ravonlikdan jabrlanuvchini himoya qiladi va aybdorlarga yoki zo‘ravonlik sodir etish bilan tahdid qiluvchilarga ta’sir choralarini qo‘yadi. U ichki ishlar organlari tomonidan zo‘ravonlik yoki tahdid fakti aniqlangandan keyin 24 soat ichida sud tomonidan uzaytirish imkoniyati bilan 30 kungacha muddatga beriladi. Uning ijrosini nazorat qilish ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan.

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

- zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga nisbatan zo‘ravonlik sodir etishni taqiqlash;
- zo‘ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga zo‘ravonlik qurboni bilan aloqa qilishni taqiqlash (ish joylarida va ta’lim muassasalarida bilvosita aloqaga ruxsat beriladi);
- zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zo‘ravonlik qurboni bilan bir xonada yoki transport vositasida yolg‘iz qolishini taqiqlash;
- zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga zo‘ravonlik qurbonini davolash, maslahat berish, joylashtirish xarajatlarini qoplash majburiyatini yuklash zo‘ravonlik qurbonlariga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazga, yetkazilgan moddiy zararni qoplash, shuningdek ma’naviy zararni kompensatsiya qilish;
- zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning muayyan joylarga borishini taqiqlash;
-zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga narkologik kasallikdan ambulatoriya yoki statsionar davolanish kabi majburiyatlarni yuklash;
- zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning turar joy maydonidan yoki uning zo‘ravonlik qurboni yashayotgan qismidan foydalanish, o‘qish yoki ish joyiga yoxud uning boshqa joylariga yaqinlashish huquqini vaqtincha cheklash.

Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan bolalarga yordam ko‘rsatish.

Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan va uni sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan bolalarga huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy yordam ko‘rsatilishi kerak, bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-bolaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ruhiy yoki jismoniy jarohatning salbiy ta’sirini kamaytirish;
- hayot sifatini oshirish va ruhiy-hissiy osoyishtalikni ta’minlash;
-oila a’zolari, tengdoshlari bilan munosabatlardagi xulq og‘ishlarining oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish;
- sog‘liqni tiklash va mustahkamlash;
-bolaning jamiyatda, shu jumladan tengdoshlari guruhida, oilaviy muhitda reabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish;

-zo‘ravonlik sodir etgan shaxsdan moddiy zararni qoplash va ma’naviy zararni kompensatsiya qilish choralarini ko‘rish;

- yuridik yordam ko‘rsatish, huquqiy axborot va maslahatlar berish;

-zo‘ravonlik sodir etgan yoki bunga moyilligi bo‘lgan shaxs bilan muloqotni cheklash yoki unga to‘sqinlik qilish;

- vaqtinchalik xavfsizlik va g‘amxo‘rlikni ta’minlash;

- xavfsiz boshpana berish.

Qonunda, shuningdek, bolalar zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan oilalarni mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xizmatlar ham nazarda tutilgan:

-zo‘ravonlik sodir etishda aybdor shaxsning hissiy barqarorligini ta’minlash, shuningdek, uning ota-onalik salohiyatini, javobgarligini va xatti-harakatlarining oqibatlarini anglashi uchun ijtimoiy, psixologik, pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

- oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish;

-zo‘ravonlik sodir etgan shaxsda ruhiy kasallik aniqlangan taqdirda psixiatriya yordami ko‘rsatish;

-narkologik kasalliklarga chalingan ota-onalarning narkologiya muassasalarida majburiy davolanishini ta’minlash;

- oilalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga ko‘maklashish, jumladan, ishga joylashishga yordam berish, tadbirkorlikka jalb qilish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatgan iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun kasbiy tayyorgarlik.

Bolani ota-onadan olib qo‘yish.

Bolaning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘ilganda, Ijtimoiy himoya agentligi bolani ota-onasidan yoki uning vasiyligidagi shaxslardan zudlik bilan olib qo‘yish choralarini ko‘rishi mumkin. Bolani zudlik bilan olib qo‘yish fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi hujjati asosida profilaktika inspektori ishtirokida amalga oshiriladi. Bola olib qo‘yilganda agentlik darhol prokurorni xabardor qilishi, bolani vaqtincha joylashtirishni ta’minlashi va yetti kun ichida ota-onalik huquqini cheklash to‘g‘risidagi da’vo bilan sudga murojaat qilishi shart.

Bolani olib qo‘yishda u quyidagi joylarga joylashtirilishi mumkin (ustuvorlik tartibi bo‘yicha):



Agar bolani oilaga joylashtirishning iloji bo‘lmasa, ixtisoslashtirilgan muassasa faqat oxirgi chora sifatida qo‘llaniladi. Qonunda jinoyat protsessida zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan bolalarni himoya qilishning maxsus choralari ham belgilangan.

Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Tergov organlari va sudlarda bolalar uchun alohida kutish joylarini tashkil etish, so‘roq qilish uchun stenografiya, videokuzatuv, audio va video yozib olish tizimlari bilan jihozlangan maxsus xonalarni yaratish;

- protsessual harakatlar davomida zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarning ishtirokini ta’minlash;

- bolalarning huquq va majburiyatlarini hamda ish bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni ularga tushunarli tilda, yoshi va rivojlanish darajasiga mos ravishda tushuntirish;

- zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan yoki zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan bolalarning ko‘rsatmalarini oldindan qayd etish;

- protsessual harakatlar vaqtida zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan yoki zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan bolalarning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lishini taqiqlash;

- jinoyat ishi yuritishning barcha bosqichlarida zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan yoki zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash.

Sog‘liq va jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash. Quyidagi jinoyatlar uchun ilgari hukm qilingan shaxslarga:

- qasddan odam o‘ldirish;
- 18 yoshga to‘lmagan jabrlanuvchining nisbatan nomusiga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish;
- 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish;
- voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik materiallarni O‘zbekiston hududiga tarqatish maqsadida olib kirish, tayyorlash va tarqatish yoki voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarga ijrochi sifatida jalb qilish;
- qo‘shmachilik;
- voyaga yetmagan shaxsni jalb qilgan holda fohishaxonalarni tashkil etish yoki saqlash.

Jazo chorasidan, sudlanganlikning tugallanishi yoki olib tashlanishidan hamda ularga nisbatan amnistiya yoki afv etish qo‘llanilganligidan qat’i nazar, ta’lim, tarbiya, bolalar sog‘lomlashtirish, sport va ijodiy tashkilotlarda ishlash hamda bevosita bolalar bilan ishlashni nazarda tutuvchi faoliyat turlari bilan shug‘ullanish taqiqlanadi. Bunday shaxslar maxsus reyestrga kiritiladi va ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turadi. Doimiy yashash joyi yoki ish joyi o‘zgargan taqdirda ular bu haqda ichki ishlar organlarini xabardor qilishi shart.

Xulosa qilib aytganda, mavjud tarbiya darajasi qanchalik past bo‘lsa, u turli xil salbiy ta’sirlarga, shu jumladan oiladagi buzilishlar, oila a’zolari o‘rtasidagi shafqatsiz muomala tizimi, ichkilikbozlik, giyohvandlar hayotiga aralashish va hokazolardan kelib chiqadigan salbiy ta’sirlarga shunchalik moyil bo‘ladi. G‘ayriijtimoiy turmush tarzi va oiladagi ekstremal vaziyatlar ta’sirida kelajakda bolalar har qanday odobli va mehribon narsaga kofir bo‘lib qoladilar va shunga mos ravishda o‘zini tutishadi. Biz pedagoglar buni oldindan yaxshi anglagan holda bolalarni ilk rivojlanish yoshidanoq to‘g‘ri ta’lim va tarbiya bilan yetishtirmog‘imiz lozim.Bunda esa zo‘ravonlik bilan emas aksincha do‘stona munosabat bilan tarbiyalsh lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–

2909–son

2. “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775–son qaror

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059–son qarori

4. Abdullayeva O‘. Pedagogik texnologiya. — Toshkent: TDPU, 2015. — 166 b.

5. Mavlonova A., Rahmonqulova N. H., Matnazarova K. O., Shirinov M. K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 528 b.

6. Ahmetjanov M. M., Olimov Sh. Sh., Avezov S. S. Pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: LESSON PRESS, 2018. — 92 b.

7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. — 424 b.

8. Ma’murov B. B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari: monografiya. — Toshkent: Nihol, 2014.

9. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Nihol, 2013.

10. Omonov H. T., Xattabov M. B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2016. — 200 b.

11. Sultanova N. Bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik holatlarining oqibatlari // International Journal of Scientific Researchers. — 2025. — Vol. 10, Issue 2. — March.

12. Form, Methods, and Means of Preparing Future Teachers to Prevent Violence in the Higher Education System. — P. 531–535.